



E CONF SERIES



International Conference on Educational Discoveries and Humanities

Hosted online from Moscow, Russia

Website: econfseries.com

16th February, 2025

SIGIRLARDA PERSISTENT SARIQ TANA KASALIGINING TARQALISHI, DIAGNOSTIKASI VA DAVOLASH USULLARI

S. A. Suvanov

Tayanch doktorant Veterinariya ilmiy-tadqiqot instituti

Annotasiya:

Ushbu maqolda sigirlarda persistent sariq tana kasalligining tarqalishi, diagnostikasi va davolash usullari bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: tuxumdonlar, gipofunksiya, sariq tana, bepushtlik, kuyikish, reproduktiv a’zolar, follikulyar kista, nimfomaniya, ultratovushli tekshirish.

Mavzuning dolzarbligi. Respublikamiz Prezidentining qator farmon va qarorlari aholini sifatli go‘sht va sut bilan ta’minalashni yaxshilashga qaratilgan bo‘lib, bugungi kunning dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi. Mahsuldor sigirlarda reproduktiv a’zolar kasalliklari va funksiyalarining buzilishi oqibatida bepushtliklarning kuzatilishi sigirlarda mahsuldorlik va ulardan bola olishning kamayishi, yuqori mahsuldor hayvonlardan xo‘jalikda foydalanish muddatlarining qisqarishi hisobiga katta iqtisodiy zararga sabab bo‘lmoqda.

Respublikamiz fermer xo‘jaliklariga xorijdan keltirilgan sigirlar orasida persistent sariq tana kasalligiga diagnoz quyish va davolash usullarini ishlab chiqish va amaliyotga tavsiya etish tadqiqotlarimiz maqsadini tashkil etadi.

Barcha turdagи urg‘ochi uy hayvonlarida tuxumdonlar funksiyasi vaqtincha susayishi mumkin. Bunday susayish uzoq davom etadigan bo‘lsa, tuxumdon atrofiyaga uchraydi. Qari hayvonlarda ham fiziologik atrofiya vujudga keladi. Amaliyotda tuxumdonlar funksiyasining susayishi va ularning patologik atrofiyaga uchrashi ko‘proq sodir bo‘ladi.

Tuxumdonlar funksiyasining susayishi va ularning atrofiyasi og‘ir kasalliklar yoki hayvonlarni noto‘g‘ri parvarishlash va oziqlantirish natijasida kelib chiqadi. To‘liq fiziologik rivojlanmagan hayvon birinchi marta tuqqanida ko‘pincha tuxumdonlar gipofunksiyasi kuzatiladi. Yetarli oziqlantirmaslik, rasionda mineral moddalar va vitaminlarning yetarli bo‘lmasligi tuxumdonlar faoliyatining susayishiga olib keladi.



E CONF SERIES



International Conference on Educational Discoveries and Humanities

Hosted online from Moscow, Russia

Website: econfseries.com

16th February, 2025

Bir tomonlama o‘ta to‘yimli oziqlantirish ham tuxumdonlarda yog‘ to‘planishi va follikulalarning degenerasiyaga uchrashi tufayli tuxumdonlar funksiyasining susayishi va atrofiyasiga sabab bo‘lishi mumkin .

Patologik sariq tananing diagnostikasi 2-3 haftalik interval bilan sigirlarni ikki marta rektal tekshirish orqali amalga oshirildi. Bunday holda, sariq tana tuxumdonning yuzasidan ancha yuqoriga chiqadi va joylashuvi, hajmi aniqlanadi. [4].

Persistent sariq tanaga diagnoz asosan to‘g‘ri ichak orqali tekshirishga asoslanadi bunda bitta yoki ikkala tuxumdonlarning biroz kattakashganligi,yuzasi biroz notekis va tuxumdon o‘z tuqimasiga ko‘ra biroz zichlashganligiga etibor beriladi va qayta 2-3xaftadan kiyin tekshirilib ko‘riladi va aniq diagnoz qo‘yiladi [5].

Yo‘qori mahsuldor sigirlarda tuxumdonlardagi kasalliklar diagnostikasida qiyinchilik to‘g‘iladi. Birinchi tug‘im sigirlarga nisbatan ikkinchi va kiyungi tug‘ishlarda tuxumdonlardagi patologiyalarga diagnostikasi qiyinlashadi. Mualliflar Norvegiyada tuxumdonlar gipofunksiyasi kuzda tuqqan sigirlar orasida ko‘p uchrashini takidlashadi [3].

Hayvonlarning bepushtliklariga vaqtida diagnoz qo‘yish, hayvon uchun optimal sharoit yaratish va davolash tartibini belgilash hamda samarali davolashni tashkil etish shifokor faoliyatidagi eng muhim vazifalarlardan biridir. Bepushtliklarga diagnoz qo‘yishning bir qancha usullari mavjud.

Bepushtliklarga diagnoz qo‘yishda ginekologik tekshirishlar kasal hayvon to‘g‘risidagi anamnez ma’lumotlari va klinik tekshirish natijalaridan tashkil topadi. Hayvon to‘g‘risidagi anamnez ma’lumotlarini to‘plashda nima uchun veterinariya yordami kerak bo‘lganligi, keyingi tug‘ishning vaqt va xarakteri, hayvonning kuyukishi va uning kechish jadalligi, necha marta va qachon urg‘ulantirilganligi, kechirgan kasalliklari, oziqlantirish va parvarishlash sharoitlari aniqlanadi. [1].

Sinxronlash usullaridan birining mohiyati shundan iboratki sigir va tanalarga 6-15 kun davomida progestogenlardan biri (progesteron, magestrol asetat va b.,) ineksiya qilinadi, undan keyin BBQZ (bo‘g‘oz biya qon zardobi) yoki estrogenlardan biri ineksiya qilinadi. Yana bir variantda jinsiy qo‘zg‘alishni sinxronlashda prostoglandin F_{2α} yoki uning sintetik analoglari (10-11 kun oraliq bilan 2 marta) qo‘llaniladi .



E CONF SERIES



International Conference on Educational Discoveries and Humanities

Hosted online from Moscow, Russia

Website: econfseries.com

16th February, 2025



Ma'lumotlarga ko'ra, sigirlarda tuqqandan keyin bachadon va boshqa jinsiy a'zolar invalyusiyasi tugagach ko'p hollarda tuxumdonlar gipofunksiyasi qayd etiladi. Mualliflarning ma'lumotlariga ko'ra, tuxumdonlar gipofunksiyasining asosiy sabablari moddalar almashinushi va jinsiy jarayonlarni boshqaruvchi gormonlar o'zaro nisbatlarining buzilishlari hisoblanadi [6].

Muallif ma'lumotlariga ko'ra persistent sariq tanani davolashda bepusht sigirlarga prostaglandin F-2 alfa (magestrofan, estrofan) preparatlardan biri 2 ml dozada bir martta inyeksiya qilinadi. Shu bilan birgalikda jinsiy sikl sinxronligini va otalanishni yaxshilash maqsadia urug'lantirilgandan kiyin gonodatropinlar (follimag, folligon) 1000 XB dozada qo'llaniladi [2].

Adabiyot ma'lumotlariga ko'ra, sigirlarning asosiy podadan chiqarilishiga 80-90% hollarda bepushtliklar, modda almashinuvlarining buzilishi kasalliklari – 74-90%, sut bezlarining kasalliklari – 17%, tuxumdonlar gipofunksiyasi – 19%, tuxumdonlarning follikulyar va lyuteal kistalari – 3%, oyoqlarning kasalliklari – 15-17 %, ovqat hazm qilish tizimining kasalliklari - 14-16%, mahsuldarlikning past bo'lishi – 18 % hollarda sabab bo'ladi. Sigirlardan xo'jalikda foydalanish o'rtacha 2,6 laktasiyaga teng bo'lgan.

Tadqitotning maqsadi. Golshtin zotiga mansub sigirlarda persistent sariq tana natijasida yuzada keladigan bepushtliklarga diagnoz quyish va davolashda sinxronlash usullaridan foydalanish.

Tadqiqotlarning obekti va usullari. Tadqiqot ishlari Samarcand viloyati Pastdarg'om tumani "Laziza shaydo", "Beshbola" qoramolchilik fermer xo'jaligida olib borildi. Tekshirish obekti sifatida 180 bosh 4-5 yosh chetdan keltirilgan golshtin zotiga mansub 2-tug'um sigirlar tanlab olinib, har oyda bir martta klinik-ginekologik tekshirishlardan o'tkazildi. Sigirlar bo'g'ozligi tug'ri ichak orqali va zamonaviy JQ



E CONF SERIES



International Conference on Educational Discoveries and Humanities

Hosted online from Moscow, Russia

Website: econfseries.com

16th February, 2025

3000 ultrasaund ultratovushli tekshirish apparati yordamida aniqlandi va bepusht sigirlar ajratib olindi.

Olingan natijalar tahlili: Fermer xo‘jaligida jami 180 bosh persistent sariq tana bilan kasallangan sigirlar ajratib olinib, to‘g‘ri ichak orqali va ultratovushli tekshirish apparati yordamida tekshirildi.

1-jadval.

Xo‘jalik nomi	Xo‘jalikdagi tekshirilgan sigirlar bosh soni	Persistent sariq tana sigirlar bosh soni	Tuxumdonlar Gipofunksiyasi sigirlar bosh soni	Tuxumdonlar kistasi sigirlar bosh soni
“Laziza Shaydo”	100	10	6	3
	foizda	10%	6%	3%
“Beshbola”	80	8	4	3
	foizda	10%	5%	3,75%
Jami	180	18	10	6
		10%	5,5%	3,3%

Tadqiqotlar olib borilgan chorvachilik va sut-tovar fermalaridagi sigirlarda tuxumdon kasalliklarining tarqalishini o‘rganganimizda “Laziza shaydo” fermer xo‘jaligida tekshirilgan 100 bosh sigirlardan 10 boshida (10%) patologik sariq tana, 6 bosh (6%) sigirlarda tuxumdonlar gipofunksiyasi va 3 bosh (3%) sigirlarda tuxumdonlarida kistasi borligi kuzatilgan bo‘lsa, “Beshbola” fermer xo‘jaligida tekshirilgan 80 bosh sigirlarning 8 boshida (10%) patologik sariq tana, 4 bosh (5%) sigirlarda tuxumdonlar gipofunksiyasi va 3 bosh (3,75%) sigirlarda tuxumdonlarida kistasi borligi kuzatilgan bo‘lsa, tekshirishlar olib borilgan xo‘jaliklarda asosan tuxumdon kasalliklarining 52% ni persistent sariq tana tashkil etadi.



E CONF SERIES



International Conference on Educational Discoveries and Humanities

Hosted online from Moscow, Russia

Website: econfseries.com

16th February, 2025

Sigirlarda persistent sariq tanani davolashda qo'llanilgan gormonal preparatlarini samarasni

2-jadval

Guruhsar	Bosh soni	Qo'llanilgan dori vositalar	Tajribalarning 10-kuni kuyga kelgan sigirlar soni	Otalanish darajasi %	28 kundan sung ultratovushli tekshirish narijalari
I tajriba	6	Utreton muskulga 15 ml E-selen vitamin 15 ml muskulga Bachadon masajj 3-5 daqiqa	3	50	3
II tajriba	6	Fertadin 2 ml, 1 haftadan sung, Gondin 2 ml , 2 kundan sung Fertadin 2 ml muskulga in'eksiya qilindi	6	100	6
III nazorat	6	Tug'ri ichak orqali 3-5 daqiqa bachadon massaj qilindi	1	16.6	1

Sigirlarda persistent sariq tana kasalligida davolashni takomillashtirish uchun davolash vositalarini tanlash va qo'llanilgan preparatlarning sigirlar klinik-fiziologik holati, qonning ayrim morfobiokimiyoviy ko'rsatkichlariga tasirini o'rghanish, qo'llanilgan vositalarning terapevtik va iqtisodiy samaradorligini aniqlash maqsadida profilaktik davolash tajribalari o'tkazildi.

Xulosa:

Sigirlarda persistent sariq tana kasalligini ertachi aniqlashda ultratovushli tekshirish apparatidan foydalanish tuxumdon kasalliklariga aniq ertachi diagnoz qo'yishga imkon beradi.

Tajribalardan ko'rilib turibdiki jinsiy organlar kasalliklarini sinxronlash va stemullash orqali mahsuldor sigirlar orasida yuzaga keladigan bepushtliklar oldi



E CONF SERIES



International Conference on Educational Discoveries and Humanities

Hosted online from Moscow, Russia

Website: econfseries.com

16th February, 2025

olinadi va shu bian birgalikda bir yilda 100 bosh sigirdan 100 bosh buzoq olish imkonи yaratiladi.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. Варганов А.И., Чупраков В.Г., Созинов В.А. «Лекарственные средства в ветеринарной акушерско-гинекологической практике». Киров, 2003. [Www.gogle.ru](http://www.gogle.ru)
2. Осетров, А.А. Рациональные методы лечения коров при гипофункции яичников/А.А. Осетров, К.И. Жадовец, С.Н. Борисевич: Материалы межвузов, научно-метод. конференции по акушерству, гинекологии и искусственноому осеменению сельскохозяйственных животных. - Львов, 1969.- С. 87-89.
3. Племяшов, К.В. Воспроизводительная функция у высокопродуктивных коров при нарушении обмена веществ и ее коррекция: автореф. дис. ... д-ра вет. наук: 06.02.06/ Племяшов Кирилл Владимирович. – Санкт – Петербург, 2010. – с. 34
4. Племяшов, К.В. Клинико–морфологические исследования яичников и матки бесплодных коров / К.В. Племяшов // Ветеринария. 2010. – № 9. – С. 8–10.
5. Полянцев, Н.И. Воспроизводство в промышленном животноводстве/Н.И.Полянцев. - М.: Росагропромиздат, 1990.- 164 с. .
6. Eshburiyev B.M. Veterinariya akusherligi. Toshkent, Fan va texnologiyalar nashriyoti, 2018.
7. <http://vak.ed.gov.ru/common/img/uploaded/files/vak/announcemens/Veterinar/2009/1506/Koba I.S>
8. <http://bd.patent.su/2372000-2372999/pat/servl/servlet5ae1.html>
9. <http://webmvc.com/bolezn/livestock/tocology/retentio.php>
10. http://www.allvet.ru/diseases/vet_obstetrics/vet_obstetrics4.php